



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

FRANSUZ TILIDA OKKAZIONAL FRAZEOLIGIK DERIVATLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Nortoyeva Nodiraxon Muxammadaliyevna
Andijon davlat chet tillari instituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning okkazional transformatsiyasi hamda ularning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda uzual va okkazional ma'nolar o'rtasidagi farqlar, frazeologik derivatlarning kontekstga bog'liqligi va so'zlovchining individual nutqiy faoliyati natijasida yuzaga keladigan semantik o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, okkazionalizm, uzual ma'no, pragmatika, kontekst, subtekst, frazeologik derivatsiya.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОККАЗИОНАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ДЕРИВАЦИЙ

Нортойева Нодирахон Мухаммадалиевна
Андижанский государственный институт иностранных языков, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье анализируются окказиональные трансформации фразеологических единиц во французском и узбекском языках, а также их коммуникативно-прагматические особенности. В центре внимания исследования находятся различия между узуальным и окказиональным значениями, контекстная обусловленность фразеологических дериватов и семантические изменения, возникающие в результате индивидуальной речевой деятельности говорящего.

Ключевые слова: фразеологическая единица, окказионализм, узуальное значение, прагматика, контекст, подтекст, фразеологическая деривация.

PRAGMATIC FEATURES OF OCCASIONAL PHRASEOLOGICAL DERIVATIONS

Nortoyeva Nodiraxon Muxammadaliyevna
Andijan State Institute of Foreign Languages, Independent Researcher

Abstract

This article examines the occasional transformation of phraseological units in French and Uzbek languages and their communicative-pragmatic features. The study analyzes the distinction between usual and occasional meanings, the contextual dependence of phraseological derivatives, and semantic changes arising from the author's individual linguistic creativity.

Keywords: phraseological unit, occasionalism, usual meaning, pragmatics, context, subtext, phraseological derivation.

Til me'yoriyligi uning tizimliliği bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u til taraqqiyotining obyektiv jarayonlari natijasida shakllanadi. Shu bilan birga, til doirasida individual ijodiy jarayon — til yaratuvchanligi ham mavjud bo'lib, u okkazional birliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Okkazionalizm (lotincha occasio — holat, sabab) — bu individual, bir martalik neologizmdir. Mazkur masala ilk bor uzual (odatiy) va okkazional ma'nolar farqi orqali izohlangan [1; 35-b]. Unga ko'ra, uzual ma'no — bu til jamoasi uchun umumiy bo'lgan semantik tasavvurlar majmui bo'lsa, okkazional ma'no — nutq jarayonida konkret vaziyatga bog'liq holda yuzaga keladigan individual semantik mazmundir.

Til va nutq o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yangi kommunikativ-pragmatik ma'nolar yuzaga keladi. Bu esa muallifning individual dunyoqarashini aks ettiradi. Ayniqsa, badiiy matnda frazeologik birliklarning transformatsiyasi orqali yangi ma'no qatlamlari shakllanadi [1; 37-b]. Frazeologik birliklar matnga kirganda ularning semantikasi va strukturasi o'zgarishlar yuz beradi. Muallif ularni o'zgartirib, o'quvchiga ta'sir ko'rsatish va ma'lum reaksiyani uyg'otishni maqsad qiladi. Hozirgi vaqtda lingvistlarning tobora ko'proq qismi tarjima jarayoni va uning natijalarini o'rganishga murojaat qilmoqda, chunki mazkur yo'nalish tilshunoslikning bir qator nazariy hamda amaliy muammolarini izchil yoritib

berishga xizmat qiladi. Tarjima ko‘pincha insonlararo muloqotdagi eng asosiy muammolardan biri sifatida talqin qilinadi, uni esa madaniyatlararo kommunikatsiya akti sifatida tushunish keng tarqalgan. Shu munosabat bilan tarjimaning ahamiyati nafaqat matn almashinuvi doirasida, balki tillarni qiyoslashning yanada samarali va ishonchli metodlari sifatida ham ko‘riladi. Chunki ikki til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, eng avvalo, tarjima orqali namoyon bo‘ladigan ekvivalentlik mexanizmlarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, “har qanday ikki tilni qiyoslash ularning o‘zaro tarjima qilinuvchanligini tekshirishni nazarda tutadi; tillararo kommunikatsiya amaliyoti, ayniqsa tarjimonlik faoliyati, tilshunoslik fani tomonidan muntazam kuzatuv ostida bo‘lishi lozim” degan fikr tarjimaning lingvistik tadqiqotlar uchun muhim konsept ekanini ko‘rsatadi [6; 234-b]. Bu pozitsiya tarjimada yuzaga keladigan variantlar, ya’ni leksik, semantik va pragmatik siljishlar hamda kontekstga bog‘liq tanlovlarning muloqot mazmuniga ta’sirini ham e’tiborga olishga undaydi. Shu bilan birga, tarjima natijalarida ko‘rinadigan “mos kelmasliklar”ni faqat xato yoki cheklov deb emas, balki tillar tizimining o‘ziga xos ishlash qonuniyatlarini ochib beruvchi empirik dalil sifatida talqin qilish mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, Sh. Balli tilshunoslik uchun muhim bo‘lgan natijalar tarjimalarni ularning boshqa tildagi original matnlari bilan qiyoslash orqali olinishi mumkinligini alohida qayd etgan. Mazkur yondashuv tarjimada tanlangan birliklarning qanday maqsadga xizmat qilgani, qaysi pragmatik ma’no komponentlari kuchaytirilgani yoki kamaytirilgani, qanday subtekst qay tarzda saqlangani kabi masalalarni aniqlashtirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarjimadagi o‘zgarishlar “kuzatiladigan” til hodisalari bo‘lib, ular aslida tizimli farqlarni ko‘rsatadi. Masalan, fransuz tilida barqaror ifoda sifatida ishlatiladigan “avoir le cœur sur la main” (so‘zma-so‘z: “qo‘lida yurak bo‘lish”) ko‘pincha “samimiy, mehribon bo‘lish” yoki “jon-dildan yordam berishga tayyor bo‘lish” kabi pragmatik ekvivalentlar bilan beriladi, bu esa frazeologik birlikning uzual ma’nosi tarjima sharoitida kommunikativ vazifasiga mos tarzda qayta talqin qilinishini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi fransuz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik, pragmatik hamda kontekstual xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirildi. Tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-lingvistik metod qo‘llanildi. Ushbu metod fransuz va o‘zbek tillari materiallari asosida frazeologik birliklarning tuzilishi, ma’no ko‘lami, uslubiy vazifasi va tarjimada berilish xususiyatlarini o‘zaro solishtirish imkonini berdi. Qiyosiy yondashuv orqali har ikki tilda frazeologik birliklarning uzual va okkazonal qo‘llanish shakllari, ularning milliy-madaniy mazmuni hamda badiiy matndagi ekspressiv imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida kontekstual tahlil metodi ham muhim o‘rin egalladi. Frazeologik birliklar alohida holda emas, balki ular qo‘llangan matn tarkibida, muallifning kommunikativ niyati, obraz yaratish usuli va badiiy nutqning umumiy mazmuni bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Bu metod frazeologik birliklarning nutqdagi real funksiyasini, ularning ma’no o‘zgarishiga uchrashi, semantik kengayishi, kuchaytiruvchi yoki baholovchi vazifa bajarishini aniqlashga xizmat qildi. Ayniqsa, okkazonal o‘zgarishga uchragan frazeologik birliklarning kontekst ta’sirida yangi ma’no qatlamlarini hosil qilishi kontekstual tahlil yordamida izohlandi. Shuningdek, tadqiqotda semantik-pragmatik tahlil metodidan foydalanildi. Mazkur metod orqali frazeologik birliklarning lug‘aviy va ko‘chma ma’nolari, ularning baholovchi, emotsional, obrazli va ekspressiv komponentlari aniqlashtirildi. Pragmatik tahlil esa muallifning badiiy maqsadi, o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish usuli, subtekstni shakllantirish va kommunikativ effekt yaratish jarayonini yoritishga yordam berdi. Shu asosda frazeologik birliklarning faqat nominativ birlik sifatida emas, balki muayyan pragmatik yuklama tashuvchi stilistik vosita sifatidagi vazifasi ochib berildi.

Maqola doirasida diskursiv yondashuv ham qo‘llanildi. Diskursiv yondashuv frazeologik birliklarni kengroq matniy va madaniy kontekstda tahlil qilish imkonini berdi. Bunda frazeologik birliklarning badiiy diskursdagi o‘rni, muallif nutqidagi uslubiy vazifasi, personaj xarakterini ochishdagi roli, matnning emotsional-estetik ta’sirini kuchaytirishdagi ahamiyati o‘rganildi. Ushbu yondashuv orqali frazeologik birliklarning matn ichidagi vazifasi faqat til hodisasi sifatida emas, balki madaniy, kommunikativ va estetik hodisa sifatida ham talqin qilindi. Tahlil materiali sifatida fransuz badiiy adabiyotidan olingan misollar tanlandi. Ushbu misollar frazeologik birliklarning kontekstda qanday qo‘llanishi, okkazonal o‘zgarishlarga uchrashi, tarjimada qanday semantik-pragmatik siljishlar yuzaga kelishini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Misollarni tahlil qilishda frazeologik birliklarning asl matndagi vazifasi, ularning o‘zbek tiliga tarjimada berilish imkoniyatlari, ekvivalentlik darajasi, ekspressivlik va baholovchilik xususiyatlari e’tiborga olindi. Umuman olganda, tadqiqotda qiyosiy-

lingvistik, kontekstual, semantik-pragmatik va diskursiv tahlil metodlarining uyg'un qo'llanilishi fransuz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning uzual hamda okkazional xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga imkon yaratdi. Mazkur metodologik yondashuv frazeologik birliklarning badiiy matndagi stilistik imkoniyatlari, tarjimadagi ifoda vositalari va lingvopragmatik ahamiyatini tizimli ravishda tahlil qilishga xizmat qildi.

Bunday strategiyalar ayniqsa frazeologik derivatsiya (frazeologik birikmaning kontekst talabiga ko'ra yangicha semantik-pragmatik talqini) holatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, fransuz tilida "tirez les ficelles" kabi iboralar ayrim kontekstlarda "ko'makchi iplarni tortish" emas, balki "u boshqaruvni bilib-bilmay amalga oshiradi" kabi baholovchi mazmuni ifodalashga xizmat qilishi mumkin, natijada subtekst (yashirin baho yoki ishora) kuchayadi. Tarjima jarayonida esa mazkur baholovchi komponentni to'g'ri aks ettirish uchun kontekstni chuqur tahlil qilish zarur bo'ladi, chunki uzual ma'no bilan okkazional (kutilmagan) ma'no o'rtasidagi farq aynan kommunikativ vaziyat, nutqiy niyat va vaziyatga bog'liq qayta talqinlarda namoyon bo'ladi. Shu tariqa, fransuz va boshqa tillar o'rtasida tarjima orqali o'tkaziladigan qiyosiy kuzatuvlar frazeologik birliklarning pragmatik ishlashini ham, ularning kontekstda yuzaga keladigan semantik siljishlarini ham tizimli ravishda yoritishga imkon beradi.

Natijalar. Uzual va okkazional ma'no o'rtasidagi farq aniqlandi. Misollar uzual ma'no — lug'aviy, umumtilga xos ma'no bo'lsa, kontekstual (okkazional) ma'no matn doirasida shakllanadi. Masalan, fransuz tilida odatiy ibora "Les paroles ne cassent pas les os" ("so'zlar zarar yetkazmaydi") [3; 43-b]. Okkazional qo'llanishda "casser les os" ("zarar yetkazmoq") ko'chma ma'noda keladi. Yana bir misol: "Personne n'est discret quand vous commencez à casser leurs os" ("Hech kim siz bosim o'tkaza boshlaganingizda ehtiyotkor bo'lib qolmaydi"). Bu yerda ibora metaforik tarzda qo'llanib, "tazyiq o'tkazish" ma'nosini oladi. Shu bilan birga, qo'shimcha "tahdid" semasi yuzaga keladi. Tarjima matnlari tahlili shuni ko'rsatdiki, tillararo o'tkazishda frazeologik birliklarning uzual (barqaror) ma'nosi doim ham to'liq saqlanmaydi. Ko'p hollarda tarjimon kontekstga moslab frazeologik birikmani "semantik qayta talqin" qiladi, natijada birlikning kommunikativ vazifasi ustuvor ko'rinishga o'tadi.

Kontekstga bog'liqlik — okkazional frazeologizmlar kontekstsiz mavjud bo'la olmaydi [2; 166–167-b]. Ularning ma'nosi to'liq ravishda matnga bog'liq. Masalan, uzual ibora "rare comme les dents d'une poule" ("juda kam uchraydigan"), okkazional shaklda "les dents d'une poule" ko'rinishiga aylanadi: "Des hommes comme lui sont aussi rares que les dents d'une poule" [4; 67-b]. Bu yerda ibora o'z asosiy ma'nosini saqlagan holda, yuqori baholovchi semantikani ifodalaydi.

Okkazional o'zgarish usullari. Frazeologik birliklar quyidagi yo'llar bilan o'zgartiriladi: komponentlarni almashtirish, qo'shimcha elementlar kiritish, ikki martalik aktualizatsiya, sintaktik transformatsiya. Uzual va okkazional ma'no farqlari tarjima jarayonida ko'pincha frazeologik derivatsiya orqali yuzaga kelgani kuzatildi. Ya'ni tarjimada birlikning ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilmay, balki uning kontekstda aktual bo'layotgan semantik-pragmatik komponentlari ajratib olinadi va maqsad til vositalari orqali qayta ifodalanadi. Bu jarayon tarjima ekvivalentligi "mazmun darajasida" emas, balki "ta'sir darajasida" ta'minlanishini kuchaytiradi.

Masalan, uzual ibora "Ne traverse pas le pont avant d'y arriver" ("Oldindan muammo yaratma") ning okkazional shakli "traverser le pont avant d'y arriver" variantini oladi [4; 67-b]. Bu yerda ibora ma'nosi kuchaytiriladi va psixologik holatni ifodalaydi. Subtekst (yashirin ma'no). Tilshunos olimlar fikricha, har qanday normadan chetga chiqish o'quvchini subtekstni izlashga undaydi. Subtekst ikki turga bo'linadi: referensial subtekst va kommunikativ subtekst. Kommunikativ subtekst orqali emotsional holat, ijtimoiy maqom, nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat aniqlanadi. Yakuniy natija sifatida, frazeologik birliklar transformatsiyasi so'zlovchining individual nutqiy faoliyati bilan ham bog'liq ekani aniqlandi: matn kontekstida so'zlovchi maqsadi o'zgarsa, frazeologik birlikning okkazional ma'nosi ham qayta quriladi. Binobarin, tarjimada mazkur dinamikani to'g'ri aks ettirish kommunikativ-pragmatik adekvatlikni ta'minlaydi.

Muhokama. Okkazional frazeologik derivatlar til tizimining muhim dinamik qatlamini tashkil etadi. Ular muallifning individual uslubini ko'rsatadi, matnning ekspressivligini oshiradi, o'quvchi bilan interaktiv aloqani kuchaytiradi.

Frazeologik birliklarning yangilanishi tilning tabiiy rivojlanish jarayonidir. Ular dastlab okkazional bo'lib paydo bo'ladi, keyinchalik esa uzual birliklarga aylanishi mumkin. Shuningdek, frazeologik innovatsiyalar kognitiv jarayonlarni aks ettiradi, madaniy xususiyatlarni ifodalaydi, milliy mentalitetni namoyon etadi.

Frazeologik derivatsiya faol, ammo fransuz tilida so'z o'yini va stilistik erkinlik yuqoriroq

darajada rivojlangan. Asliy frazeologik birlik “être suspendu à un fil” (ya’ni xavf ostida bo’lmoq, taqdiri noaniq holatda turmoq) qayta tahlil qilinib hamda uning obrazli asosiga qo’shimcha komponent — “rompre” (“uzib yubormoq”) kiritilishi orqali matn mualliflari murakkab sintaktik butunlik doirasida ko’p qatlamli semantik bog’lanishlarni yuzaga keltiradilar [5; 320-b]. Bu esa matnga o’ziga xos satirik keskinlik bag’ishlaydi. Shu tariqa, ko’rib chiqilgan okkazional frazeologik birliklarni hosil qilish usullari asarning g’oyaviy-badiiy mazmunini ochib berishga, qahramonlar va vaziyatlarni tavsiflashga xizmat qiladi. Okkazional o’zgarishlarning asosida har doim kommunikativ-pragmatik intension yotadi. Shu sababli transformatsiyaga uchragan nominativ birlik nafaqat nominativ-ekspressiv, balki pragmatik funksiyani ham bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar kontekstda okkazional o’zgarishlarga uchraganda, ularda qo’shimcha ma’no hosil qilish, ma’noni kuchaytirish hamda semantik aniqlik kiritish kabi funksiyalar yuzaga keladi. Mazkur funksiyalar uzual, ya’ni an’anaviy funksiyalar — ekspressiv-obrazlilik, baholovchilik, xarakterlovchilik va tasvirlovchilikka tayangan holda amalga oshadi. Tarjima hozirgi tilshunoslikda nafaqat amaliy faoliyat, balki madaniyatlararo muloqotni ta’minlovchi murakkab va tizimli jarayon sifatida alohida o’rin tutadi. Ikki til o’rtasidagi tarjima imkoniyatlarini tahlil qilish tarjima natijalarida namoyon bo’ladigan semantik-pragmatik siljishlarni ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Tarjima jarayonida til birliklarini tanlash kontekst, kommunikativ niyat va matnning uslubiy xususiyatlariga bog’liq bo’lib, bu holat ekvivalentlikning to’liq yoki qisman shakllarda namoyon bo’lishini belgilaydi. Original matn va tarjimini qiyosiy tahlil qilish orqali har bir tilga xos frazeologik birliklarning yashirin, milliy-madaniy va semantik xususiyatlari aniqlanadi. Frazeologik birliklar tarjimada ko’pincha pragmatik yuklamani qayta taqsimlash orqali ifodalanadi. Natijada matnning subteksti saqlanishi yoki kuchayishi, baholovchi komponentlar esa qayta talqin qilinishi mumkin. Fransuzcha frazeologik birliklar misolida ham okkazional va uzual ma’no farqlari bevosita kontekstga bog’liq holda semantik o’zgarishlarga olib kelishi kuzatiladi. Bu esa mazkur hodisalarni tizimli ravishda o’rganish zarurligini ko’rsatadi. Okkazional tarzda o’zgartirilgan frazeologik derivatlarning axborot berish va baholash salohiyati odatda uzual birliklarga nisbatan yuqori bo’ladi. Bunday holat ularning tarkibida qo’shimcha semantik qatlamlarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Demak, okkazional frazeologik transformatsiyalar badiiy matnda muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo’ladi. Ular orqali muallif nafaqat yangi ma’no yaratadi, balki o’quvchiga kuchli pragmatik ta’sir ko’rsatadi. Okkazional derivatlar uzual birliklarga nisbatan kengroq semantik va ekspressiv imkoniyatlarga ega bo’lib, matnning chuqurroq anglanishini ta’minlaydi. Shu bois frazeologik birliklarning okkazional o’zgarishlarini o’rganish lingvopragmatik tadqiqotlarda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Назарян А. Г. Семантическая моделируемость фразеологизмов: реальность или фикция? // Филологические науки. – 1983. – № 6. – С. 34–39.
2. Кунин А. В. Фразеологическая деривация в английском языке // Сборник научных трудов МГПИИЯ им. М. Горького. – М., 1980. – Вып. 164. – С. 155–162.
3. Muhammadaliyevna N. N. Derivational Processes and Transpositional Formation of Phraseological Units: A Comparative Study of Uzbek and French // Shokh Articles Library. – 2026. – Vol. 1(1).
4. Muhammadaliyevna N. N. Fransuz tilida ikkilamchi frazeologik birliklar yasalanishining o’ziga xos xususiyatlari // Journal of Language and Linguistics. – 2024. – Vol. 7(1). – B. 67–70.
5. Nortoyeva N. Fransuz tilida birlamchi frazeologik birliklarning ifodalanishi // Acta NUUZ. – 2024. – Vol. 1(1.2.1). – B. 319–322.
6. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation. – Cambridge, 1989. – P. 262.